



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI


NAVOIY VILOYATIDA
ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN
INVESTITSIYALAR



2023- YIL YANVAR - MART

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2023-yil yanvar-mart




2023- yilning yanvar-mart oylarida 3 671,6 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʼzlashtirilib, ularning 54,0 % i yoki 1 982,9 mlrd. soʻmi jalb etilgan mablagʼlar hisobidan moliyalashtirilgan boʼlsa, korxona, tashkilot va aholining oʼz mablagʼlari hisobidan 46,0 % yoki 1 688,7 mlrd. soʻm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022- yildagi ulushiga nibatan 5,1 % punktga kamayib, 7,6 % ni yoki 278,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 392,7 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 92,4 % investitsiyalari oʼzlashtirilib, 2022- yildagi koʼrsatkichiga nisbatan 5,1% punktga koʼpaydi.

Markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari tarkibi, mlrd.so'mda



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar,


Infographic by [Elements](#)



2023- yilning yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1333,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 36,3 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,9 % ni yoki 354,7 mlrd. so'mni o'zlashtirildi.



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 369,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,9 % punktga kamayib, 10,1% ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 88,8 mlrd. so'm (ulushi 2,4 %), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1704,0 mlrd. so'm (46,4 %), Respublika budgeti 185,2 mlrd. so'm (5,0 %), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 5,0 mlrd. so'm (0,2 %i) miqdorida asosiy kapitalga inestitsiyalar o'zlashtirildi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. soʻm	Oʼsish surʼati, % da	Viloyatdagi ulushi, % da
Navoiy viloyati	3671,6	99,4	100,0
<i>shaharlar;</i>			
Navoiy.sh	691,6	65,6	18,8
Zarafshon.sh	499,5	189,9	13,6
Gʼazgʼon.t	34,8	94,3	0,1
<i>tumanlar;</i>			
Konimex.t	118,2	124,0	3,2
Qiziltepa.t	204,0	93,8	5,6
Navbahor.t	139,6	138,5	3,8
Karmana.t	452,8	130,8	12,3
Nurota.t	529,5	198,3	14,4
Tomdi.t	667,7	73,0	18,2
Uchquduq.t	91,4	108,8	2,5
Xatirchi.t	242,6	77,0	6,6

2023- yil yanvar-mart oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2022-yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 198,3 % ga o'sib, Nurota tumanida kuzatildi. Bu asosan "Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ (Pistali GMZ-6) konidan oltin va rudani qazib olish bilan bog'liq.

Shuningdek, Zarafshon shaharida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 189,9 % ni tashkil qildi. Bunday natijani "Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ tomonidan (Amudaryo Zarafshon nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish) kon stansiyasini qurish doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

Mashina, uskuna, inventar

Qurilish-montaj ishlari

Boshqa xarajatlar



Yangi qurilish

64,9 %



Kengaytirish, rekonstruksiya,
modernizatsiya

23,1 %



Boshqa yo'nalishlar

12,0 %



Navoiy viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 1 998,1 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 54,4 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 1 507,6 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 41,1 %) va boshqa xarajatlarga 165,9 mlrd. so'm (4,5 %) o'zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida kuzatildi – 10,0 % yoki 368,2 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja G'azg'on shahrida kuzatilib, 0,8 % ni yoki 28,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Tomdi tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 15,6 % yoki 571,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023 yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2 381,0 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 64,9 %ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich "Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ (Pistali GMZ-6) koni qurish loyihalari bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Nurota tumanida kuzatilib, u 198,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 848,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 23,1 %ini tashkil etdi. Qolgan 12,0 %, ya'ni 442,0 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Hudular bo'yicha yangi qurilish ishlarining ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'naliishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSIYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSIYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishslash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalarini hisobidan 2 540,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 69,2 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:





Tog'-kon sanoati va karerlarni qazish 146,4 mlrd. so'm
Ulushi 4,0 %

Qishloq, ormon, baliq xo'jaligi
258,8 mlrd. so'm
ulushi 7,0 %

Ishlab chiqarish sanoati 2
540,8 mlrd. so'm
ulushi 69,2 %

Tog‘-kon sanoatida jami 146,4 mlrd.so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami investitsiyalar hajmining 4,0 % i o‘zlashtirilgan bo‘lib, uning tarkibidan 7,1% i yoki 10,4 mlrd. so‘mi metal rudalarni va mineral xomashyo qazib chiqarish sohasiga tegishlidir.

Navoiy viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1 704,0 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 88,8 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,6 % ni tashkil etdi.



IJTIMOY SOHA OBYEKTLARINI ISHGAGA TUSHIRISH



	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Navoiy viloyati	545	157,2
<i>shaharlar</i>		
Navoiy	16	4,7
Zarafshon	28	5,5
G'azg'on	2	0,5
<i>tumanlar</i>		
Konimex	9	1,9
Qiziltepa	102	30,5
Navbahor	61	18,4
Karmana	113	33,8
Nurota	77	21,2
Tomdi	3	0,8
Uchquduq	6	1,8
Xatirchi	128	38,1

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (79) 223-54-73